




Nabijon Ermat 1949-yil 21-noyabrda Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida tavallud topgan. Uning "99 topishmoq va tez aytish", "Ellik erkin qushlarim", "Hayot qo'shig'i", "Sakson sakkiz sara soz" kabi kitoblari nashr qilingan.



Har bir so'zdagi harflarni kattalashib borish tartibida o'qing.

TO K I B K U Y U B D N S H I N O M D A

Hikmatli so'zni izohlang.





Kitob – kuch

Nabijon Ermat

Kitob sevgan insonga
Kitob erur xazina.
Kitob o'qimaganlar
O'zidan qilsin gina.

Kitobsiz uy zim-ziyo,
Yo'qdir tuynuk, eshigi.
Zulmat uni qurshaydi,
Allalamas beshigi.

Kuch bo'lsa – kuch topilar
Pashshada ham, baliqda.
Savodsizlik shiori
Hammaga bir qullikda.

Kitobga oshno bo'lgan
Farqlar yaxshi-yomonni.
Aql bilan ish ko'rar,
Bekor qiynamas jonni.

Shuning uchun o'quvchim
Kitob bilan oshno bo'l.
Zukkolik ulug' qurol,
Seni kutar yorqin yo'l.

Jajjigina qalbingdan
Joy topgin kitobga ham.
E'zoz qilgin non kabi –
Ulg'ayasan, bo'lmay kam.

Bobolardan meros u,
Kitob katta kuch bilsang.
Ilmgaga yetaklaydi,
U bilan do'st tutinsang.





1. She'r sizda qanday his-tuyg'ularni uyg'otdi?
2. Shoir she'rda kitobga qanday ta'rif bergan?
3. Ayting-chi, kitob katta kuch bo'lishi mumkinmi? Fikringizni izohlang.
4. Nega kitobi yo'q uy zim-ziyoga o'xshatilgan?
5. "Kitob o'qimaganlar O'zidan qilsin gina" misrasini qanday tushundingiz?
6. She'rdan qanday xulosa chiqardingiz?



tuynuk – eski uy devoridagi yorug'lik, havo kirishi uchun qoldiriladigan teshik



She'rni ifodali o'qing.
Qofiyadosh so'zlarni aniqlang.
She'rdagi juft to'rtliklarni o'qing va mazmunini izohlang.
Kitob so'zi ishtirok etgan misralarni o'qing.



She'rni yod oling.